

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yuqori
kurslar kafedrasi ochiq dars tahlili

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: Sodiqova B, Isroilova M., Shomurodova N., Sobirjonova M., Amanova O., Davlatova Sh., Ruzieva R., Mahmudov Sh., Hamrayeva M.

Fan: “Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi”

Mavzu: “G.Hofstede madaniyati o‘lchovi nazariyalari”

Guruh: 2-M-XT, Magistratura ta’lim boqichi

O‘qituvchi: Bobojonov Dilshod

Sana: 25.11.2025

Darsning maqsadi: Talabalarga “G.Hofstede madaniyati o‘lchovi nazariyalari” mavzusida ilmiy sohasidagi ingliz tili va akademik muhitda qo‘llaniladigan ingliz tili o‘rtasidagi farqlar bilan tanishtirish, ularning til birliklarini kontekstga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

O‘qituvchi mavzuni e’lon qildi, darsning maqsadi va vazifalarini tushuntirdi. Talabalar bilan “G.Hofstede madaniyati o‘lchovi nazariyalari” mavzusida qisqa suhbat o‘tkazildi. Dars jarayonida ayniqsa mavzuga oid terminlardan keng foydalanish, kontekstdan umumiy ma’noni chiqarish yo‘llari ham keng tushuntirib berildi.

Talabalar 2 guruhga bo‘lindi. Har bir guruhga ingliz tilida 2xil matn parchasi berildi. Guruhlar matnni terminlardan foydalanib to‘g‘ri joylashtirib shakllantirishga harakat qilishdi. O‘qituvchi va talabalar har bir guruh ishini tahlil qilib, afzallik va kamchiliklarni muhokama qildilar.

Darsning yakuniy qismida talabalarning fikrlari tinglandi: “Bugungi mashg‘ulot sizga nimani o‘rgatdi?” O‘qituvchi darsni umumlashtirdi: mavzu doirasida talabalar so‘z boyligini kengaytiradi, turli matn turlari bilan ishlaydi, professional va akademik vaziyatlarda ingliz tilidan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy mashg'ulotlarda Science Englishning amaliy, rasmiy, muzokara va ish jarayonlariga yo'naltirilgan xususiyatlarini, Academic Englishning esa ilmiy-analitik, izohli, dalillarga tayangan uslubiy jihatlarini solishtirib tahlil qilishni o'rgatadi. Dars interfaol tarzda, yuqori faollik va qiziqish bilan o'tdi. Ushbu ochiq dars orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashdi.

KAFEDRA QARORI:

- 1.O'qituvchi: Bobojonov Dilshod Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi fanidan "G.Hofstede madaniyati o'lchovi nazariyalari" mavzusidagi ochiq dars tahlili ma'qullansin.
2. O'qituvchi Bobojonov Dilshodning o'tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog'aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva

**“Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrasining
katta o‘qituvchisi Bobojonov Dilshodning
70110901– Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
Magistratura mutaxassisligi uchun 2-M-XT guruhida
“Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi” fanidan
“G.Hofstede madaniyati olchovi nazariyalari” mavzusida
tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars ishlanmasiga**

T A Q R I Z

“G.Hofstede madaniyati olchovi nazariyalari” mavzusining asosiy maqsaditalabalarni biznes sohasidagi ingliz tili va akademik muhitda qo‘llaniladigan ingliz tili o‘rtasidagi farqlar bilan tanishtirish, ularning til birliklarini kontekstga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. “Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi” fani talabalarda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha zarur bo‘lgan ingliz tilidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Fan mazmuni kasbiy terminologiyani egallash, sohaga oid matnlar bilan ishlash, yozma–og‘zaki professional muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘quv jarayonida talabalar kasbiy hujjatlarni ingliz tilida tuzish, xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan muloqot shakllari bilan tanishish, shuningdek, real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘z malakalarini mustahkamlaydilar. Mazkur fan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ingliz tilidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu dolzarb masalalarni ko‘zlab tayyorlangan mazkur 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi DTS talablaridan kelib chiqib, o‘quv rejasi va dasturi asosida tuzilgan.

Dilshod Bobojonov tomonidan “G.Hofstede madaniyati olchovi nazariyalari” mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi 70110901– Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili Magistratura mutaxassisligi ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi fanidan talabalarning yangi tushuncha va ko‘nikmalarini, fikrlash doirasini boyitish maqsadida mavzuga doir ma’lumotlar yaxshi yoritilgan.

Sodiqova Baxtigul tomonidan tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi oliy ta’lim sohasidagi islohatlar va bugungi kun talablarini hisobga olib tuzilgan. Muallif mavzuni zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda turli xil savollardan foydalanib, mavzuni yaxshi yoritib bergan hamda ochiq dars mavzusini amalda foydalanishni tavsiya etaman.

Taqrizchi:



**“Xorijiy til va adabiyoti quyikurslar”
kafedrasi, katta o‘qituvchisi,
f.f.f.d.(PhD) M.S.Sobirjonova**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrasining
katta o‘qituvchisi Bobojonov Dilshodning
70110901– Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
Magistratura mutaxassisligi uchun 2-M-XT guruhida
“Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi” fanidan
“G.Hofstede madaniyati olchovi nazariyalari” mavzusida
tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars ishlanmasiga

T A Q R I Z

70110901– Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili Magistratura mutaxassisligi ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi fanidan, tarjimaning lekik muammolari va unda uchraydigan tarjima bilan bog'liq muammolarni tushuntirishdan iboratdir. “Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi” fani talabalarda o'z mutaxassisligi bo'yicha zarur bo'lgan ingliz tilidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Fan mazmuni kasbiy terminologiyani egallash, sohaga oid matnlar bilan ishlash, yozma–og‘zaki professional muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘quv jarayonida talabalar kasbiy hujjatlarni ingliz tilida tuzish, xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan muloqot shakllari bilan tanishish, shuningdek, real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘z malakalarini mustahkamlaydilar. Mazkur fan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ingliz tilidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“G.Hofstede madaniyati o‘lchovi nazariyalari” mavzusining asosiy maqsadi– talabalarni biznes sohasidagi ingliz tili va akademik muhitda qo‘llaniladigan ingliz tili o‘rtasidagi farqlar bilan tanishtirish, ularning til birliklarini kontekstga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu dolzarb masalalarni ko‘zlab tayyorlangan mazkur 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi DTS talablaridan kelib chiqib, o‘quv rejasi va dasturi asosida tuzilgan.

Dilshod Bobojonov tomonidan “G.Hofstede madaniyati o‘lchovi nazariyalari” mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusining maqsadi ta'lim sifatini boshqarish orqali darsda talabalarning yangi tushuncha va ko‘nikmalarini, fikrlash doirasini boyitish maqsadida mavzuga doir ma'lumotlar yaxshi yoritilgan, taqdimot (slyd)da rangli rasmlar va amaliy asosida savollar keltirilgan.

Dilshod Bobojonov tomonidan tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi oliy ta'lim sohasidagi islohatlar va bugungi kun talabalarini hisobga olib tuzilgan. Ochiq darsi mavzusini amalda foydalanishni tavsiya etaman.

Taqrizchi:



“Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar”
kafedrasini, katta o‘qituvchisi,
f.f.f.d.(PhD) B.I.Sodiqova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti